

**UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILAR KITOBOXONLIGINI
TARBIYALASH**

Xasanova Gulnora Chorshanbiyevna
*Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish
milliy markazi o'qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10389707>

Annotatsiya: ushbu maqolada kitobxonlik, uzluksiz ta'lif jarayonida o'quvchilar kitobxonligini tarbiyalash, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda turli usullardan foydalanish haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: kitob o'qish, kitobxonlik madaniyati, kitobxon qiziqishini o'rghanish, kitobga mehr.

Annotation: This article provides information on reading, educating students in the process of continuing education, the use of different methods in the development of reading culture.

Keywords: reading a book, a culture of reading, a study of the reader's interest, a love of books.

Аннотация: в данной статье представлена информация о чтении, воспитании чтения у учащихся в процессе непрерывного образования, а также использовании различных методов в развитии читательской культуры.

Ключевые слова: чтение, культура чтения, изучение читательского интереса, любовь к книге.

***Kutubxona-bu g'oyalar maskani,
unga hammani taklif qilish mumkin
A.I.Gersen***

Keyingi paytlarda jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari, axborot oqimining tezlashuvi va mafkuraviy xurujlarning ortib borayotgani sabab "yoshlar muammosi" kun tartibidagi dolzarb masalaga aylandi. Bu holat tegishli tashkilotlar qatorida axborot-kutubxonalar zimmasiga ham mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi.

Bolalarni tarbiyalash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan jarayondir, chunki unda jamiatning barcha a'zolari ishtirok etadilar. Shuning uchun ham respublikamizda ushbu jarayonga katta ahamiyat berilmoqda. Zero yoshlar bizning kelajagimiz, biz ularga qanchalik ko'p bilim va tarbiya bersak, kelajagimiz shunchalik farovon, mamlakatimiz tinch va osoyishta bo'ladi.

Axborot-kutubxonalar o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy dunyosini boyitishga, kitobga bo'lgan mehr-muhabbatini oshishiga xizmat qiladi. Har bir inson

ma’naviyat xazinasi bo‘lmish kutubxonalardan, uning cheksiz imkoniyatidan iloji boricha ko‘proq foydalanish bilan o‘zining, o‘zgalarning hayotini boyitishi mumkin. Zотан, kutubxonalar mamlakatimizda kechayotgan yangilanish va bunyodkorlik ishlarida tobora katta rol o‘ynamoqda.

Bolalar xarakterida shakllanayotgan ilk tushuncha va hissiyotlarni o‘z vaqtida ilg‘ab olib, ularning keyingi amaliy faoliyatiga yordam berish har bir tarbiyachi va tarbiya muassasalarining birinchi navbatdagi vazifasidir. Ayniqsa bolalarga atalgan vaqtli matbuot, bolalar va o‘smirlar kitobi ularga ta’lim va tarbiya berishda juda katta o‘rinni egallaydi, busiz haqiqiy insonni tarbiyalash mumkin emas.

Maktab o‘quvchilar kitobxonligini tarbiyalash muhim pedagogik muammo bo‘lib, shaxs axborot madaniyatini rivojlantirishda asosiy vositalardan hisoblanadi. O‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish kontseptsiyasini ishlab chiqish muammosi nafaqat uning ijtimoiy ahamiyati, balki nazariy asoslari va amaliy shart-sharoitlariga ham bog‘liq.

Qadimgi yunon faylasufi Suqrot “O‘qituvchining ijodkorligi, bu tayyor axborotni o‘quvchiga yetkazishga emas, balki, o‘quvchilarni haqiqatga intilish, mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishga qaratilganligi” deb ta’kidlagan. Kitob o‘qimagan o‘qituvchi o‘quvchilarga kitobga mehr uyg‘ota olmaydi. Ming afsuski, bugungi kunda maktablarda ham ko‘pchilik o‘qituvchilar kitob o‘qimaydi. Kitob o‘qimagandan so‘ng qanday qilib bolalarga o‘qi deya oladi? Qanday qilib o‘zida ilm nuri bo‘lman murabbiy murg‘ak qalblarni ziyo bilan yoritishi mumkin? Oilalarda kitob o‘qish madaniyatini joriy qilishimiz darkor. Bu kitobni o‘qisang ham o‘qiysan, o‘qimasang ham o‘qiysan, deb bolaning o‘ziga tashlab qo‘yadiganlar ko‘p. Bolaning qiziqishlari bilan ishi bo‘lmaydigan, maktabdan o‘rgangani yetadi, deguvchi ota-onalar ham talaygina. O‘quvchilarda kitob o‘qish ko‘nikmasi va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish uchun eng avvalo ota-onas, o‘qituvchi va tarbiyachining o‘zi kitobxon bo‘lishi, shaxsiy namuna ko‘rsata olishi lozim.

Umumta’lim maktab kutubxonalari o‘quvchilarning yoshi, qiziqishi, talab va istaklarini hisobga olib adabiyotlarni taqdim etishlari, bolalarning o‘qishga rahbarlik qilishlari juda muhim hisoblanadi. Kitob oladigan o‘quvchi qanday kitobni qaysi vaqtida, qaysi yoshda o‘qishini kutubxonachi doimiy nazorat qilishi kerak. 1-2-sinfda o‘quvchilarga ertaklar, masallar, she’rlar o‘qish, 3-4-sinflarda ertaklar, masallar bilan birgalikda kichik hikoyalar, she’rlar, dostonlar o‘qish tavsiya etilishi kerak. Shuning uchun kutubxonachi har bir kitobxon bolani ko‘zdan yo‘qotmasdan ko‘pincha guruhlarga bo‘lib o‘rgatadi. Kitobxonlarni qiziqishini o‘rganishda umumiyl va maxsus usullardan foydalilanadi. Boshlang‘ich sinflarda ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish, bolalar adabiyoti namunalarini o‘qib-o‘rganishga odatlantirish, keyingi bosqichlarda esa, o‘quv fanlari bo‘yicha matnlar mutolaasi, ulardan axborot olishga o‘rgata boshlash asosiy maqsadga aylanishi kerak.

Respublika maktab kutubxonalari tomonidan bolalarni kitobxonlikka o‘rgatish, ijodiy faoliyatga jalb etish orqali o‘sib kelayotgan yosh avlodni bilimli, ma’naviy barkamol shaxs etib shakllantirish borasida ma’lum ishlar bajarilmoxda. Jumladan: bahs-munozaralar, kitobxonlar konferentsiyalari, tanlovlari, suhbatlar, adabiy o‘yinlar, viktorinalar, ertaliklar, kutubxonachilik ishlari bo‘yicha adabiy klublar va to‘garaklardagi ishlarni tashkil qilish, fanlar haftaligi, turli sanalar munosabati bilan o‘tkaziladigan

anjumanlar, tashkil etiladigan ko‘rgazmalar, yangi kitoblar taqdimoti kabi ommaviy tadbirlar o‘quvchi va o‘qituvchilar diqqatini ko‘proq jalb qilmoqda.

Biz yoshlarimizning ongida bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasdan ularni ko‘proq kitob o‘qishga, nojoyiz saytlardan foydalanmasliklariga harakat qilishimish kerak. Yoshlarimizga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatadigan, ma’naviy ozuqa beradigan turli tadbirlarni tez-tez o‘tkazilib turilsa, ularning tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan o‘yinlardan, yot g‘oyalarni singdiruvchi qora kuchlardan himoya qilgan bo‘lamiz.

Respublikamizda yoshlarimizning ma’naviy tahdidlardan himoya qilishda maktab kutubxonalarida o‘tkazilib borilayotgan “Adabiyot kunlari”, ”Eng yaxshi kitobxon”, ”Kitobxon-maktab”, ”Kitoblar taqdimoti”, ”Kitobim – oftobim” kabi tadbirlarning samarasi katta bo‘lmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatimizda axborot-kutubxona muassasalariga katta e’tibor bilan qaralayotgan bir davrda maktab kutubxonalari ishini ham tubdan takomillashtirish lozim. Chunki o‘quvchilarning kitobga, ilm olishga bo‘lgan qiziqishi oila keyin maktab kutubxonalari zimmasida. Bolaning dastlabki kitobxonlik tasavvuri, savodi, kitoblar, kutubxonalar haqidagi fikrlari aynan maktab kutubxonasida shakllanadi, litsey va texnikum ARMlarida takomillashib boradi. Maktab kutubxonasi bolalarning kasb tanlashlarida ham asosiy vazifani bajaradi, bolaning kelajagi, kelgusida yetuk kasb egasi, mutaxassis bo‘lib yetiishishi ko‘proq maktab kutubxonasiga bog‘liq. Maktab kutubxonachisi-tarbiyachi, ruhshunos, bilim beruvchi, tashkilotchi, targ‘ibotchi bo‘lishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sон Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2019-yil 7-iyundagi PQ-4354-sон qarori.
3. G‘aniyeva D.A. Axborot-kutubxona muassasalarida kitobxonlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda madaniy-ma’rifiy tadbirlarning roli –T.: «Tafakkur» nashriyoti, 2017.